

Qosimova Jasmina Ilhom qizi

Mirzo Ulug'bek Nomidagi

O'zbekiston Milliy Universiteti,

xorijiy filologiya fakulteti 2-kurs talabasi

TA'LIM MANBALARIDA MUALLIMLIK MAQOMI

Annotatsiya. Maqolada insonning bilim egallash amaliyotida bevosita ishtirok etadigan ilm manbalari ko'rsatilgan. Ularda namoyon bo'ladigan muallimlik sifatleri qisqacha bayon etilgan.

Tayanch tushunchalar: odob, axloq, ta'lim, ilm, bilim, muallim, o'qituvchi, ustoz.

СТАТУС ПРЕПОДАВАТЕЛЯ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ИСТОЧНИКАХ

Аннотация: Статья включает в себя источники знаний, которые непосредственно участвуют в процессе обучения человека. Кратко описаны качества учителей, которые проявляются в них.

Основные понятия: нравы, нравственность, образование, наука, знание, учитель, наставник.

THE STATUS OF TEACHING IN EDUCATIONAL SOURCES

Annotation: The given article embraces the basic of resources that a person can encounter during the process of knowledge acquirement. Furthermore, briefly provides with the characteristics that teachers may possess.

Basic concepts: manners, morals, education, science, knowledge, teacher, mentor.

Dolzarbliqi: Istalgan odamning o'z hayoti davomida muqarrar duch keladigan ta'lim manbalari zanjiri keltirilgan. Undan har bir halqa – inson ma'naviyat dunyosining shakllanishida qanday ahamiyat kasb etishi o'rganilgan

Muallim, o'qituvchi va ustoz statuslashgani printsiplial farqlar ko'rsatilgan

Ma'lumki, insoniylik tabiatining shakllanishi, rivoji va kamoloti faqat tizimli ta'lim-tarbiya ta'sirida vujudga keladi. Bu mashaqqatli jarayon butun umr, ya'ni beshikdan qabrgacha davom etadi.

Muxtasar qilib aytganda ta'lim-tarbiyaning fundamental vazifasi inson qalb dunyosini poklab, uni obod etishdan hamda undagi gavhari-iymonni risqlantirib, salomat saqlashdan iborat

Ta'lim-tarbiya muolajasi shartli ravishda ikki yo'nalishga ajratilgan:

1. Axloq va odob tarbiyasi.

Bundan murod talabani ma'rifat, madaniyat va bilimlar dunyosiga munosib sifati-salohiyat ila olib kirish. Zotan, ilmu-hunar daraxtining fazilat urug'i faqat umuminsoniy qadriyatlar bilan obdon suqorilgan odob va axloq zaminiga, ya'nikim insonning pokiza qalbiga ekilmo'gi lozim.

Uztozlarimiz bejizga: "Avval axloq so'ngra bilim, chunki odob ilmdan ustundir" deb, aytishmagan axir.

"Odob olmagan, axloqsiz olimdan ustiga kitob ortilgan eshak afzal" deganlar mavlono Abdurahmon Jomiy (1).

1. Ilm singdirish amaliyoti.

Albatta, ilmning qadr-qimmatini o'zi bilan. Ilmli va ilmsiz insonning farqi, yoruq kun va qorong'u kecha farqidan aslo kam emas.

Muqaddas Qur'oni Karimning 765 joyida ilm zikr qilingan ekan.

Hazrati Payg'ambarimiz (s.a.v): "Ilmu-hikmat mo' minning bamisoli yo'qolgan molidek, bas uni qayerda topsa olsun" deb marhamat qilganlar. (2)

Imom al-Buxoriy rohmatallohi alayhi: " Najot ilmida , dunyoda ilmdan o'zga najot yo'q, bo'lishi ham mumkin emas" deb , ogohlantirganlar.

Jadidchilik harakatining ulug' namoyondalaridan bo'lgan, marifatparvar olim Abdurauf Fitrat domla esa: " Bu xalqning davlatmand , baxtli-saodatli bo'lishi, izzat-hurmat topib , turli jabhalarda jahongir bo'lishi va yoki zaif bo'lib – xorlikka tushishi, o'zgalarga tobe, qul va asir bo'lishi ularning yoshlikda oladigan ta'limu-tarbiyasiga bog'liq" – deb millatni ilm o'rganishga qat'iy da'vat etganlar.(3)

Bunday dur fikrlar shodasi inson zotiga-foydali ilm o'z sohibini dunyoi- oxiratda azizu-mukarram qiluvchi ilohiy bir ne'mat ekanligini ochiq-oydin anglatadi.

Darhaqiqat , inson dunyoning suratini bevosita ko'zi bilan ko'rsada , uning asil sayratini, - agar ta'bir joiz bo'lsa – faqat aqli-zakovati bilan "ko'ra" oladi.

Ko'rmoq va anglamoq quvonchi odamzodga ilhom bag'ishlaydi , uni amaliyot maydoniga - ijod qilishga chorlaydi. Bu ulkan , ijobiy , ruhlantiruvchi kuchning ta'siri ostida hatto beparvo , tanbal , inert inson ham kreativ, ya'ni faol-tashabbuskor shaxsga aylanadi. Ana shularning sharofati bilan ilm-fan rivojlanib insoniyat tamaddunining keyingi , yuqori halqasi bunyod etiladi.

Demak, xulosa shuki har birimiz mukammal ilmu – odob egalashga va ayni paytda ta'lim-tarbiya resurslari bilan obdon tanishib chiqishga burchlimiz.

Albatta , bugungi kunda maorif oldida turgan barcha jiddiy muammolarni samarali hal qilish vazifasi olimu-ulamalarimiz zimmalaridadur.

Lekin , ayni paytda jamiyatimiz uchun maorifning tabiiy poydevoriga qisqacha, hatto yuzaki bo'lsada bir nazar tashlamoqlari maqsadga muvofiq bo'ladi deb o'ylaymiz.

Garchi ta'lim tizimining markazida talaba tursada bu jarayonni harakatga keltiruvchi asosiy kuch - bu muallimdir. Shu o'rinda muallim tushunchasi biz odatda o'qituvchi deb qaraydigan tushunchadan ancha keng ekanligini alohida ta'kidlab o'tamiz.

Muallimning ta'limi – odob va ilm berishdan, talabaning tahsili esa shu ne'matni bilim sifatida o'zlashtirib olishdan iborat.

Mulohazalarga ko'ra ilm berish texnologiyasida muallimlik sifati quyidagi statuslarda namoyon bo'ladi:

1. Ota-ona muallim.

Oila kishilik jamiyatining yacheykasi, ya'ni to'laonli eng kichik bir bo'lagidir.

Bu ma'rifat maskani-undagi qadriyatlar bilan go'dak qalbini va ongini sayqallaydigan ilk zarbxona hisoblanadi.

Dunyoga kelganida bolaning qalbi bamisoli oq qogozga o'xshaydi. Ota-ona beradigan ta'lim-tarbiya unda bir umrga , to'la to'kis holda muhrlanib qoladi.

Olimlar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha oddiy bola besh yoshidayoq unga inson sifatida lozim bo'ladigan barcha ma'lumotning to'qson foizini o'zlashtirib olishga ulgurur ekan.

Bundan, ma'naviyat va ma'rifatning tamal toshi oila hududida qo'yilishi ravshan boladi .

Demak, ta'lim-tarbiyani shior qilar ekanmiz, eng avvalo, diqqatimizni shu nuqtaga qaratishimiz lozim.

2. Hayot muallim.

Hayot odamizodni turli-tuman muammolarga duch qiladi. Bu masalalarni hal qilish jarayonida to'planadigan malaka – inson uchun bilim o'rnini bosuvchi – tajribadan iborat.

Shuningdek , farosatli har bir inson yon atrofidagi aqlu-zakovat egalarini o'ziga do'st tutadi. Ularning ilm majlislaridan bahramand bo'lib , o'zining ma'naviyatini boyitib boradi. Ali ibn Abu Tolib (r.a)shunday deganlar: "Mol-dunyo Odil Zot tomonidan taqsimlangan va birlashtirib qo'yilgan.Ilm esa o'z ahlida saqlanadi. Sizlar uni ahlidan talab qilib olishga buyurilgansizlar." Shu o'rinda ulug' shoir Abu Abdulloh Rudakiyning quyidagi misralari beixtiyor yodimizga keladi:

" Har kimki hayotdan olmasa ta'lim

Unga o'rgata olmas hech bir muallim". (4)

3. Kitob muallim.

Insoniyatning uzoq tarixi davomida to'plagan ilm xazinasini asosan kitoblarga joqilib qo'yilgan. Shu bois kitob ta'limda tayanch ilm manbai hisoblanadi.

Zero, kitoblar - alloma ajdodlarimizning sizni bizga qaratilgan ishonch nigohlari, muloqot sôzlari va yuksalishimiz uchun tutib bergan yelkalaridir. Buni bilmaslik inson zotiga uyat, bilib turib qadriga yetmaslik esa ma'naviyatimizga qarshi jinoyatdir.

Ahli ilmlar inson hayoti uchun kitobning maqomini quyidagicha ta'riflaganlar:

“Kitob – beminnat do'st,

Zimistonda shamchiroq,

Kimsasiz sahroda yo'ldosh,

Bemorga darmonu, tashnaga obi hayot

G'aribga xazinayu, oqilga bayot.”

Internet tarmog'ining ilm manbasi sifatidagi maqomini baholashga doir mulohazalar alohida mavzuga ajratilib yoritilsa maqul bo'ladi, deb o'ylaymiz.

4. Pedagog muallim.

O'qituvchi – maxsus pedagogik ilm va malakaga ega bo'lgan shaxs. U talabaga mutaxassis sifatida, ya'ni tayinli maqsadni ko'zlab, tasdiqlangan reja asosida tizimli ta'lim beradi.

Tabiiyki, bu muallimlik sifatida yuqoridagilarga nisbatan muqarrar afzallik va ustunliklar mavjud.

Bunda ilm muolajasi:

- Uzviylik va uzluksizlik prinsipida

- Sabab – oqibat mantiqi asosida

- Qadam-baqadam o'zlashtirish algoritmi

orqali amalga oshiriladi.

Lekin qayd etib o'tilgan har bir manba o'z doirasida fundamental ahamiyat kasb etadi. Shu bois ularni bir-biri bilan almashtirish va yoki e'tiborsiz qoldirish mutlaqo mumkin emas. Ularning munosib jamlanmasi bir-birini to'ldirib, mukammal ta'lim-tarbiya tizimini barpo qiladi.

Mulohazalarga ko'ra, pedagog muallimlik statusining ikkita darajasi bor:

O'qituvchi muallim.

O'qituvchilik-bu buyruq bilan tayinlanadigan mansab. Shak - shubhasiz, ularda oliy ilm va kasbiy mahorat bor. Jamiyat oldidagi mas'uliyatlarini anglagan holda vijdonan mehnat qilishlari ham tayin. Lekin, shularga qaramasdan barcha o'qituvchi ham tahsil berish jarayonida talabaning ichki dunyosiga yol topib, uni zabt eta olmaydi. Ular asosan ilm oluvchining aqliga va ongiga ta'sir ko'rsatadi. Agar o'qituvchi rasmiyatchilik doirasida faqat ma'lumot yetkazib berish bilangina chegaralanib qolsa, u hech qachon ustoz bo'la olmaydi.

Ustoz muallim.

Ustozlik - bu oliy maqom-martaba. Uni hayotning o'zi beradi. Agar ta'limning ta'siri qalbga yetib borsa, unga ozuqa berib-ziynatlasa, o'qituvchi o'quvchi uchun beixtiyor ustozga aylanadi.

"Ustoz otangdan ulug'" deydi, dono xalqimiz. Bunday e'tirofga sazovor bo'lish ustozlar uchun sharafdir. Faqat piru-komil ustozlarga mukammal fazilatli mutaxassislarni tarbiyalab, voyaga yetkazish qudratiga egadirlar.

O'qituvchiga shogirdining hurmat-izzati, ustozga esa uning ixlosi, cheksiz mehr-muhabbati nasib bo'ladi.

Mavzuni Hazrat Alisher Navoiy bobomizning quyidagi nodir misralari bilan yakunlaymiz:

“Haq yo'linda kim sanga bir harf o'qitish ranj ila

Aylamak bo'lmas ado oning haqqin yuz ganj ila”. (5)

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahmon Jomiy Fava'id al-Fuad T., Sh. "Sharq" n. 2000-yil
2. Imom al-Buxoriy – Al-Jome' AS-Sahih T., Sh "Fan" n.1991-yil
3. Abduraf Fitrat Oila yoki boshqarish boshqarish tartiblari, Frzand tarbiyasi T., Sh "Cho'lpon" n.2019-yil. 70 bet
4. Abu Abdulloh Ro'dakiy – Hikmatlardan odamush-shuaro – Abu Abdulloh Rudakiy (ziyouz.com)
5. Alisher Navoiy – Mahbub – Ul –Qulub T., Sh "Yangi Asr" n 27 bet